

## YORDAMCHI FE'LLAR USLUBIYATI VA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Rahmatova Sevaraxon Alisherovna

Toshkent Shahar Mirzo Ulug‘bek tumani

18-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Yetakchi va yordamchi fe'llardan tashkil topgan birikmalar komponentlarining birikish shakli, o‘zaro ma’no munosabatlari, yordamchi fe'llarning uslubiyati, leksik-grammatik xususiyatlari sistem-struktur tilshunoslik olimlar diqqat markazidagi asosiy o‘rganish obyektlardandir. Maqolada, asosan, yordamchi fe'llarning uslubiyati, lug‘aviy shakl yasovchi affikslardan farqi, leksik-grammatik xususiyatlari haqida fikrlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** yordamchi fe'l, yetakchi fe'l, affiks, tilshunoslik, ma’no munosabati, shakl yasovchi, birikma, uslubiyat.

O‘zbek tilida to‘liq holda yordamchi fe'l vazifasida keladigan fe'llar mavjud emas. Ular o‘rni bilan mustaqil fe'l, o‘rni bilan esa yordamchi fe'l funksiyasida qo’llanadi. Jumladan, boshla, yot, tur, yur, bo'l, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, yubor, tashla, yoz va shu kabilar. Fikrimizni asoslash uchun quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

Yodgor ertalabdan buyon Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanini o‘qib **yuribdi**.( yordamchi fe'l)

Yodgor ertalabdan buyon ko‘chada **yuribdi**. (mustaqil fe'l)

Charchaganidanmi yoki eringanidanmi, bilmadim-u, lekin Salima yo‘lni yarmida aravaga yotib **oldi**.( yordamchi fe'l)

Bu sinfdoshlarga havasim keldi, chunki ular ota-onalari bergan pullariga kitoblar **oladi**. (mustaqil fe'l)

Yuqoridagi fe'llarni gap orasida mustaqil fe'lmi yoki yordamchi fe'lmi, aniqlash ba’zi o‘rinlarda qiyin bo‘lib qoladi. Shu sababli yordamchi fe'llarning leksik-grammatik xususiyatlari haqida ma’lumot berishni joiz bildik.

Yordamchi fe'llarning leksik-grammatik xususiyatlari deyilganda bu fe'llarning yordamchi fe'l vazifasida qo‘llanganda mustaqil ma’no bildirmasligi, o‘zi birikib kelgan fe'lning ma’nosiga turli qo‘sishimcha ma’no berishi va yetakchi fe'l bilan birgalikda gap bo‘lagi bo‘lib kelishi tushuniladi.

Shaklan bir xil bo‘lgan birliklar ham mustaqil fe’l, ham yordamchi fe’l vazifasida qo‘llanish holatlari ham kuzatiladi. Ravishdosh shaklidagi fe’l bilan shaxsli fe’lning o‘zaro birikuvida shaxs-son bilan tuslangan fe’lda shu xususiyatni ko‘rish mumkin: Jumladan, *irg‘ib tushdi* birikuvida *tushdi* fe’li ko‘makchi fe’l bo‘lishi ham mumkin, mustaqil fe’l bo‘lishi ham mumkin: *otdan irg‘ib tushdi*. Bunda *tush* fe’li harakatni bildiradi. Ravishdosh formasidagi fe’l shu harakatning qanday bajarilganligini anglatadi (shunga ko‘ra bu birikuvda *tush* fe’li mustaqil fe’l hisoblanadi); *Kamolxonov bir irg‘ib tushdi, gangidi...* Bu gapdagи *irg‘ib tushdi* birikuvida *tush* fe’li harakat bildirmaydi. O‘zi biror so‘zni boshqarib ham, gapning mustaqil bo‘lagi bo‘lib ham kelmaydi. Bu birikuvda asosiy ma’no *irg‘i* fe’li ifodalagan ma’nodir. *Tush* fe’li shu fe’l bildirgan harakatning xarakteristikasini, ya’ni harakatning yo‘nalishini ko‘rsatadi va ma’noni kuchli ottenka bilan ifodalaydi. Shunga ko‘ra, u ko‘makchi fe’l hisoblanadi<sup>1</sup>.

Aksariyat holatlarda yordamchi fe’llarning ma’nosи shu fe’llarning mustaqil ma’nosidan tubdan farqlanadi. Ularning bunday ma’nolari ostida ish-harakat tushunchasi bo‘lmaydi: ayta qolmoq, ko‘ra olmoq kabilar shular jumlasidandir. Bunday hollarda ravishdosh shaklidagi fe’lning asosiy fe’l ekanligiga, unga birikib kelgan fe’lning yordamchi fe’l ekanligini anglash oson bo‘ladi. Masalan, ko‘ra olmoq birikuvida ol fe’li harakat ma’nosini emas, balki imkoniyat, shu ishga qodirlik ma’nosini ifodalaydi. Bundan uning mustaqil fe’l emas, aksincha, yordamchi fe’l ekanligi yaqqol anglashinib turadi.

Lekin shunday yordamchi fe’llar borki, ular ifodalaydigan ma’no shu fe’llarning mustaqil fe’l sifatida ifodalaydigan ma’nosidan tamomila boshqa ma’no bo‘lmay balki mustaqil ma’nolaridan biriga to‘g‘ri keladi. Masalan, bo‘l ko‘makchi fe’lining ma’nosи uning mustaqil fe’l sifatida ifodalaydigan ma’nosiga to‘g‘ri keladi: o‘qib bo‘ldim – o‘qishni tugatdim. Ana shunday hollarda ravishdosh shakliga birikib kelgan fe’lning mustaqil fe’l yoki yordamchi fe’l ekanligini aniqlash birmuncha mushkuldir.

Biror fe’lning yordamchi fe’l yoki mustaqil fe’l ekanligini uning quyidagi birikuvda o‘z ma’nosini ifodalashi yoki o‘z ma’nosidan tamomila boshqa ma’no ifodalashiga qarabgina belgilanmaydi. Jumladan, o‘qiy boshladi, aytib bo‘ldi birikmalarida boshlamoq va bo‘lmoq fe’llari ifodalaydigan ma’no shu fe’llarning mustaqil fe’l sifatida qo‘llanganda ifodalaydigan ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Ammo o‘qiy boshladi birikuvida boshlamoq fe’li yordamchi fe’l hisoblanadi. Bunda asosiy harakat yetakchi fe’l anglatgan harakatdir.

Bilamizki, yordamchi fe’llar o‘zi birikib kelgan fe’lning ma’nosiga qo‘sishma ma’no yuklab keladi. Bu tomondan yordamchi fe’llar lug‘aviy shakl yasovchi affikslarga yaqin turadi. Lekin ularni affikslarga tenglashtirib bo‘lmaydi. Yordamchi

<sup>1</sup> Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. “Фан” нашриёти. Тошкент, 1966. Б.15-16.

fe'llar o'zining leksik ma'nosini tamomila yo'qotmaydi, ular so'zligicha qoladi. Ularning affikslardan asosiy farqi ham shundadir. Yordamchi fe'llar va affikslar o'rtasida quyidagicha farqlar mavjud:

1. Yordamchi fe'llarning barchasi mustaqil fe'l sifatida ham qo'llanadi.
2. Affikslar so'zlarga bevosita bog'lana oladi. Yordamchi fe'llar esa ravishdosh shakli orqali yetakchi fe'lga bog'lanadi.
3. Ayrim yordamchi fe'llarning ma'nosi shu fe'llarning mustaqil fe'l sifatida ifodalaydigan ma'nosiga to'g'ri keladi. Jumladan, boshla, bo'l, qol fe'llari
4. Fe'l turkumiga xos shakl yasovchi affikslar o'zi birikib kelgan fe'lning biror qo'shimcha grammatik ma'no ifodalaydi.
5. Ko'makchi fe'lning ayrimlari ba'zi fe'llar bilan birikkanda bir xil ma'noni, boshqa fe'llar bilan birikkanda esa boshqa ma'nolarni ifodalab keladi. Jumladan, *dumalab ketmoq* birikmasida *ketmoq* yordamchi fe'li yo'nalish ma'nosini ifodalasa, *semirib ketmoq* birikmasida harakat-holatning yuqori darajada yuz berishi ma'nosini anglatadi. Lug'aviy shakl yasovchi affikslar esa hamma vaqt ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi.
6. Yordamchi fe'llarning shakl yasovchi affikslardan yana bir farqi shuki, ular so'zlarga xos tashqi belgisini, ya'ni shaklini saqlab qoladi. Masalan, ko'ra olmoq, ayta ko'rmoq, gapira boshlamoq.

Ko'rini turibdiki, yordamchi fe'llarning uslubiyati, leksik-grammatik xususiyatlari o'rganish talab qilinadigan, tahlilga tortiladigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu soha juda keng qamrovli bo'lib, yordamchi fe'llarni ma'lum bir badiiy asar yoki she'riy asar misolida tadqiq va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar:**

1. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўмакчи феъллар. “Фан” нашриёти. Тошкент, 1966.
2. О. Акбаров, Узбек тилида қўшма феъллар, Тошкент, 1953;
3. Н. А. Баскаков, Қаракалпакский язык, II, Фонетика и морфология, ч. 1, М., 1952.
4. Аксёнова А.А. Ресептивные аспекты визуального в литературе. // Новый филологический вестник 2020. №3 (54)